

ЛАНДШАФТЫ ОАЗИСОВ И ФАКТОРЫ ИХ ФОРМИРОВАНИЯ

Хикматова Г.Г.¹, Усманов М.Ф.²

¹преподаватель кафедры географии Бухарского государственного педагогического института

²Бухарский государственный педагогический институт по направлению "основы географии и экономических знаний" студент 4-го курса,

Аннотация

Изучение ландшафтов оазиса основная часть населения Узбекистана соответствует той части, где он живет. Оазисы-это в основном пустыни нашей страны. в районах, преобразованных и благоустроенных населением сформированный. Новые, антропогенные ландшафты на месте природных началось строительство. Оазисные пейзажи-это разновидность антропогенных ландшафтов вид в климатических странах, по истории их формирования отдельный генетический ряд вместе со всеми антропогенными ландшафтами -образует ряд антропогенных ландшафтов. Вот почему оазис его пейзажи можно назвать пейзажами антропогенных оазисов.

Ключевые слова: антропогенный ландшафт, культурный ландшафт, геосистема, оазис, пейзажи оазиса, искусственный ландшафт, классификация ландшафтов, Бухара оазис, пустынная зона, засушливый климат, селитебные ландшафты.

OASIS LANDSCAPES AND FACTORS OF THEIR FORMATION

Hikmatova G.I.¹, Usmanov M.F.²

¹Teacher of Geography Department of Bukhara State Pedagogical Institute,

²student of the 4th stage of the direction of geography and economic knowledge of the Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract

The study of oasis landscapes is the main part of the population of Uzbekistan corresponds to the part where he lives. Oases are mostly deserts in our country.

in areas that have been transformed and improved by the population formed. New, anthropogenic landscapes have been created in place of natural ones construction has begun. Oasis landscapes are a type of anthropogenic landscape a type in climatic countries, according to the history of their formation a separate genetic series along with all anthropogenic landscapes-forms a series of anthropogenic landscapes. That's why an oasis its landscapes can be called the landscapes of anthropogenic oases.

Keywords: anthropogenic landscape, cultural landscape, Geosystem, oasis, oasis landscapes, artificial landscape, classification of landscapes, Bukhara oasis, desert zone, arid climate, residential landscapes.

VOHA LANDSHAFTLARI VA ULARNING SHAKLLANISH OMILLARI

Hikmatova G.I ¹, Usmonov M.F ².

¹ Buxoro davlat pedagogika instituti geografiya kafedrasi o'qituvchisi

² Buxoro davlat pedagogika instituti geografiya va iqtisodiy bilim asoslari
yo'nalishi 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYASI

Voha landshaftlarini o'rganish O'zbekiston aholisining asosiy qismi yashaydigan qismiga to'g'ri keladi. Vohalar asosan yurtimizning cho'l hududlaridan aholi tomonidan o'zgartirilgan va obod qilingan hududlarida shakllangan. Tabiiy landshaftlar o'rnida yangi, antropogen landshaftlar barpo bo'la boshladi. Voha landshaftlari antropogen landshaftlarning arid iqlimli o'lkalardagi bir ko'rinishi bo'lib, ular o'zining shakllanish tarixiga ko'ra barcha antropogen landshaftlar bilan birga alohida genetik qatorni – antropogen landshaftlar qatorini tashkil etadi. Shu boisdan voha landshaftlarini antropogen voha landshaftlari deb aytish mumkin.

Kalit so'zlar: antropogen landshaft, madaniy landshaft, geosistema, voha, voha landshaftlari, texnogen landshaft, landshaftlarni tasniflash, Buxoro vohasi, cho'l zonasi, arid iqlim, seliteb landshaftlar.

Voha tushunchasi geografiya fanidagi asosiy tushunchalardan sanaladi.

Voha atamasi “Qisqacha geografik ensiklopediya” da izoh berilishicha, lotincha va yunoncha “oasis” soʻzidan olingan. Voha deb dastlabki vaqtlarda Liviya choʻlida aholi yashaydigan yashil manzarali bir necha joylarni tushunishgan. Bu joylar choʻl va chalachoʻl geosistemalar doirasida daraxtli, butazorli va oʻt oʻsimlikli uchastkalar boʻlgan. Mazkur termin Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasining 2 – jildida shunday taʼriflangan.

Voha bu choʻl va chala choʻllarda obod qilingan yer. Vohada namgarchilik qoʻshni hududlarga nisbatan koʻp. Yer osti suvlari yuza boʻlib, buloqlar chiqib yotadi, daryolar vaqt-vaqti bilan toshib turadi. Vohalar koʻpincha daryo, koʻl, kanal va quduqlardan suv bilan taʼminlanadi. Maydoni bir necha oʻn km² dan bir necha oʻn ming km² gacha boʻladi. Shimoliy Afrika, Gʻarbiy Osiyo va Markaziy Osiyo choʻllarida mashhur vohalar bor. Toshkent, Murgʻob, Xorazm, Buxoro vohalari, Fargʻona vodiysidagi vohalar ham ancha katta. Odatda, vohalarda aholi zich yashaydi.

A.A.Abdulqosimov (1972) Oʻrta Osiyo voha landshaftlarini va ularning morfologik strukturasini tadqiq etish bilan shugʻullanib, voha landshaftlarining tabiiy xususiyatlarini tahlil etadi va unga shunday taʼrif beradi: Voha landshafti antropogen landshaft kompleksining zonal turi boʻlib, u inson xoʻjalik faoliyati taʼsirida shakllangan agrobiosenozlar bilan qoplangan, arid iqlimli oʻlkalarda keng rivoj topgan va inson tomonidan doimiy ravishda boshqarilib turiladigan sugʻorma dehqonchilik yerlaridir. F.N.Milkov (1973) Oʻrta Osiyodagi sugʻoriladigan vohalarni tabiiy sharoiti kuchli oʻzgartirilgan antropogen landshaftlarning bir turi deb qaraydi. A.N.Xojimatov (1993) Oʻzbekiston choʻl zonasidagi voha landshaftlarini xilma-xil sifatli ikki tizim – tabiat va jamiyatning bir-biriga taʼsiri natijasi, ijtimoiy tizimga adekvat boʻlgan oʻzaro taʼsir etish shakli deb izohlaydi.

Voha landshaftlari antropogen landshaftlarning arid iqlimli oʻlkalardagi bir koʻrinishi boʻlib, ular oʻzining shakllanish tarixiga koʻra barcha antropogen landshaftlar bilan birga alohida genetik qatorni – antropogen landshaftlar qatorini tashkil etadi. Shu boisdan voha landshaftlarini antropogen voha

landshaftlari deb aytish mumkin. Voha landshaftlari tarkibiga faqat doimiy ravishda sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari – paxta plantatsiyalari, sholi plantatsiyalari, mevali bog'lar, tutzorlar, dalalarni himoya qilish o'rmon polosalari va poliz ekinlari emas, balki irrigatsion inshootlar – kanallar, suv omborlari, ariqlar, shahar va qishloq seliteb landshaftlari, qayta sho'rangan va botqoqlangan yerlar, tashlandiq suvlar hisobiga hosil bo'lgan ko'llar va boshqa antropogen landshaft elementlari kiradi. Bular, o'z navbatida, antropogen voha landshaftlari sistemasini vujudga keltiradi.

Yuqorida tahlil qilingan tushunchalardan xulosa qilib, voha landshaftiga quyidagicha ta'rif berish mumkin. Voha landshafti – bu arid zonalarda insonning maqsadli yo'nalishdagi xo'jalik faoliyati natijasida vujudga kelgan, doimiy ravishda sug'oriladigan va inson tomonidan boshqarilib turiladigan antropogen geosistemalarning bir turidir.

Masalan, Buxoro vohasi quyidagicha chegaralanadi. O'zbekiston hududida Zarafshon vodiysining uzunligi qariyb 480 km bo'lib, bu qismida Samarqand, Buxoro, Qorako'l vohalari joylashgan. Samarqand vohasi Samarqand botig'ida joylashgan, shimoldan G'ubdintog' —Oqtog' — Qoratog', janubdan Qoratepa—Zirabuloq—Ziyovuddin kabi uncha baland bo'lmagan tog'lar bilan o'ralgan. Vodiy bu vohada ancha keng. Navoiy shahridan o'tgach, vodiy yana torayadi. Qiziltepa va Oftobachi qirlari bir-biriga juda yaqinlashib, Hazar yo'lagini hosil qiladi. Vohaning yer yuzasi tekis, uni Zarafshon daryosi va vaqtincha oqar soylar kesib parchalagan, ba'zi yerlarida jarlar hosil qilgan.

Hazar yo'lagidan o'tgach, vodiy yana kengayadi va janubi-g'arbga burilib, Buxoro vohasini hosil qiladi. Bu qismida Zarafshon vodiysining kengligi 70 km ga etadi hamda tekislikka aylanadi. Voha shimoldan Qizilqum bilan, sharqdan Qo'shtepa, Azkamar, Quyimozor, Qaynag'ach, Qumsulton kabi tepaliklar, janub va janubi-g'arbdan esa Qorako'l platosi bilan o'ralgan. Buxoro vohasi janubi-g'arbga, g'arb va shimoli-g'arbga bir oz nishab. Uning mutlaq balandligi 200—280 m. Vohani kanallar, ariqlar kesib o'tgan. Zarafshon vodiysi Buxoro vohasida janubi-g'arbga torayib boradi hamda Qorako'l platosi yonida

ancha torayib Qorako‘l yo‘lagini hosil qiladi. So‘ngra vodiylar yana kengayib Qorako‘l vohasi boshlanadi.

Qorako‘l vohasini janubi-g‘arbdan Sandikli qumligi, shimoli-sharqdan Qorako‘l platosi va janubdan Eshakchi qumligi o‘rab turadi. Bu yerda vodiylarning kengligi 48—50 km, mutlaq balandligi 185—200 m.

Qishloq xo‘jalik landshaftlari ayrim manbalarda (masalan, V.A. Nikolayev, 1979, 1984; E.V. Milanova, A.M. Ryabchikov, 1979; A.G. Isachenko, 1980) agrolandshtlar yoki agrolandsht tizimlari deb atalib, O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasi hududi uchun ham juda xarakterlidir.

Bu o‘lkaning qishloq xo‘jaligi qadimdan an‘anaviy tarzda uch yo‘nalishda rivojlanib kelmoqda, ya‘ni obikor dehqonchilik, lalmikor dehqonchilik va chorvachilik. Bulardan obikor dehqonchilikning landshaftlarga ta‘siri ayniqsa sezilarlidir. Bunday ta‘sir natijasida alohida, o‘ziga xos antropogen landshaftlar yuzaga kelgan. Ularni L. N. Babushkin, N. A. Kogay (1964) sug‘oriladigan yerlar landshaftlari deb, N.A. Gvozdetskiy (1977) voha landshaftlari deb, F. N. Chalidze (1980) esa irrigatsion landshaftlar deb alohida o‘rganilganligi bejiz emas.

A. G. Isachenkoning (1991) fikricha, hozirgi zamon landshaftlarning ko‘pchiligi insonning nooqilona faoliyati natijasida o‘zgartirilgan bo‘lib, ularni madaniy landshaftlarga aylantirish lozimdir. Bunday landshaftlarning eng asosiy xususiyatlaridan biri mahsuldorlik va iqtisodiy samaradorlik bo‘lishi kerak.

V. B. Sochava (1978) ham insonning tabiat bilan yaratuvchanlik hamkorligi haqida so‘z yuritarkan landshaftlarning ichki imkoniyatini rivojlantirish, tabiiy jarayonlarni faollashtirishga va landshaftlarning samaradorligini oshirish asosiy maqsadga aylanishi kerakligini ta‘kidlab o‘tadi. Darhaqiqat, inson dehqonchilik bilan shug‘ullanarkan ekan, u o‘z oldiga eng avval bir narsani, ya‘ni iloji boricha ko‘proq qishloq xo‘jalik mahsulotlari olishni maqsad qilib qo‘yadi. Bu maqsadga erishish uchun landshaftni tekislaydi, o‘g‘it soladi, tuproqni ma‘lum bir qalinlikda ag‘darib tashlaydi, ma‘lum bir ekin ekadi, sug‘oradi, begona o‘tlar va zararkunanda hasharotlarga qarshi turli xil dorilarni ishlatadi, tuproqning

sho'rini yuvadi, zax suvlarini qochiradi va hokazo. Xullas, ekin ekishdan to hosilni yig'ishtirib olgunga qadar turli-tuman agrotexnik tadbirlarni qo'llaydi va bu jarayon o'nlab, yuzlab yillar mobaynida qaytalanaveradi. Natijada, bizga yaxshi tanish bo'lgan va antropogen landshaftlar ichida «Madaniy landshaft» deb atalishi mumkin bo'lgan hamda yuqori mahsuldorlik, iqtisodiy samaradorlik kabi talablarga ozmi-ko'pmi mos kela oladigan landshaftlar hosil bo'ladi. Bu o'z navbatida, ilgari shu landshaftlarga xos bo'lgan tabiiy xilma-xillikni soddalashishiga hamda moddalarning, shu jumladan, to'yimli moddalarning aylanma harakati, organizmlar sonining muvofiqlanib turishi, tuproq unumdorligining maromida bo'lishi, landshaftlarning o'zini-o'zi saqlab turishida juda katta va hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Dehqonchilik ta'sirida esa landshaftlarning ana shu xususiyati, ya'ni o'zini-o'zi saqlash xususiyati keskin kuchsizlanib ketadi. Bu narsa, ayniqsa, monokultura sharoitida tez ro'y beradiki, unda ekinlarga kasallik tushishi, zararkunanda hasharotlarning ko'payib ketishi oddiy holga aylanib qoladi. Bundan tashqari, obikor dehqonchilik inson hisobga olmagan ba'zi hodisa va jarayonlarni masalan, yer osti suvlari sathining ko'tarilishi, dalalardan qaytgan oqova suvlarning tarkibida mineral tuzlarning ortib ketishi, ikkilamchi sho'r bosishi, irrigatsiya eroziyasi va hokazoni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun ham antropogen rivojlanish orasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni oldini olish yoki juda bo'lmaganda ularning ko'lamini kamaytirish uchun landshaftlarning tashqi ta'sir kuchlariga nisbatan barqarorligini aniqlab olish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдулқосимов А.А., Абдурахмонова Ю.Х., Давронов К.Қ. Зарафшон ботиғи воҳа ландшафтлари ва экологияси Тошкент, 2017. 102- б.
2. Абдулкасимов А. Ландшафтно-экологические исследования межгорных котловин Средней Азии для заповедных целей. // Сб. географические проблемы развития заповедного дела. Самарканд, 1986. С.4-5.

3. Агроклиматические ресурсы Бухарской области. Ленинград, Гидрометеиздат, 1972.-120 с.
4. Баратов П.Б. Природные ресурсы Зарафшанской долины и их использование. Ташкент, «Фан», 1977.-116 с.
5. Buxoro viloyatining yillik statistik to'plami 2020 yil yanvar-dekabr; Buxoro, 2020- 27b.
6. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии. М., 1979.